

# AVTOMOBILLARNING ATROF- MUHITGA CHIQRADIGAN CHIQINDI GAZLARINI BAHOLASH.

*To‘rabek Xudoyberdiyev*

*Jizzax Politexnika instituti assistenti*

*Dinakaran Sabapathy*

*Sambhram universiteti, B.tech fakulteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, Ekalogiyani himoyalash haqida hozirgi zamon ishlab chiqarishi ekologik sabablari va uning oqibatlarini to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan. Har qanday yonilg‘i yonganda turli xil yonish chiqindilari ajralib chiqadi.


**Kalit so‘zlar:** tirbandlik, avtomobillar, jamoat transportlari, avtomobillar qatnov qisimlari, shovqin , yo‘l muhiti.atrof muhitga ajraladigan chiqindi gazlar.

**Annotation:** the article is one of the current pressing problems of the present day, covering information about the environmental causes of current production and its consequences on the protection of Ecology. Different combustion emissions are released when any fuel is burned.

**Keywords:** traffic jams, cars, public transport, car traffic jams, noise, road environment, waste gases that are released into the environment.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish esa hozirgi zamon texnikasiga asoslangan. Texnikaning manbai esa fandır. Demak, ekologik qiyinchiliklar fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liqdir.

Yer yuzida sanoat va avtomobil transportining rivojlanishi natijasida yangi “Atrof-muhitni himoyalash” muammosi paydo bo‘ldi. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda joylashib, ma‘lum hududlarnigina ifloslantirsa, avtomobillar esa inson oyog‘i yetgan joyning barchasiga ta‘sir ko‘rsatadi.



*1-rasm. Avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta'siri.*

Har qanday yonilg'i yonganda, turli xil yonish chiqindilari ajralib chiqadi. Bu chiqindilar inson salomatligiga va atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi zavodlar, fabrikalar va avtotransport korxonalarini atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda joylashib, o'z atrofini ifloslantirsa, avtomobillar esa barcha ishlagan joylarida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Avtomobil transporti, hozirgi vaqtda zavod va fabrikalarga qaraganda, atrof -muhitni ko'proq ifloslantiruvchi manbaa hisoblanmoqda (2-rasm).



## 2-rasm. Shahar ko'chalaridagi tirbandliklar

Tahlillarning ko'rsatishich tirbandliklar bir nechta sabablar natijasida kelib chiqadi.

-yo'l toifasiga mos ravishda o'tkazuvchanlik qobiliyati teng bo'lmagan yo'llar kesishuvi;

- yo'lda harakatlanish qoidalariga rioya qilmaslik;

-yo'lning qatnov qismi kengligi (yo'lni noto'g'ri loyihalash);

- juda past tezlikda harakatlanish;

- yo'lning o'tkazish qobiliyatidan yuklanganlik darajasi oshib ketishi;

-transport oqim zichligi oshishi.

Chiqindi gazlar atrof-muhitga avtomobilning ishlashi natijasida chiqargan zaharli moddalarning 65-70% ini, karter gazlari esa 20% ini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda hal qilishi kerak bo'lgan eng katta muammo avtomobilni ishlatishdan chiqadigan zaharli chiqindilarni kamaytirishdan iboratdir. Ko'chadagi tirbandliklar atrof muhitga ajralib chiqadigan chiqindi gazlarni miqdorini haddanziyod oshiradi.

Ko'cha-yo'l tarmoqlarida tirbandliklarni vujudga kelishda transport oqimining zichligi muhim ahamiyat kasb etadi va u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$q = \frac{N}{V}, \text{ avt/km};$$

N-bitta polosadagi transport harakat miqdori,

V-transport oqimining tezligi, km/soat;


Avtomobil yo'lining maksimal nazariy o'tkazish qobiliyati ham tirbandliklarning ko'cha-yo'l tarmoqlarida vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etib quyidagicha ifodalanadi.

$$P = \frac{1000 V}{L_d}, \text{ avt/soat};$$

V-tasmada harakatlanayotgan avtomabillarning tezligi, km/soat;

$L_d$  -avtomobillarning dinamik gabariti, m;

Bundan tashqari yo'lning qatnov qismi o'lchamlari standartga mos kelishi shahar ko'cha-yo'l tarmoqlaridagi tirbandliklar vujudga kelishining oldini oluvchi omillaridan biri sanaladi.



3-rasm. Yo'lning qatnov qismini aniqlash

Qarama-qarshi harakatlangan avtomobillar orasidagi havfsiz masofani aniqlash

$$X=0.3+0.1\sqrt{V_1+V_2};$$

Avtomobil chetki g'ildiragi bilan yo'l qoplamasi qirg'og'igacha bo'lgan masofa

$$Y=\sqrt{0.1+0.0075V};$$

Xulosa qilib aytganda rivojlanib borayotgan avtomobil sano'ati davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissasini qo'shsada, ularning ekspluatatsiya jarayoni kundan kunga qiyinlashib bormoqda, ya'ni yirik shaharlarda avtomobillar sonining oshib ketishi tufayli tirbandliklar vujudga kelishi natijasida ko'chalarda harakatlanishning yangicha yondashuv usullaridan foydalanish talabi oshib ularni ilmiy asoslanishiga sabab bo'lmoqda. Biz o'z yurtimizdagi tirbandliklarga yechim berib atrof muxitga ajraladigan chiqindi gazlarning miqdorini kamaytirishimiz kerak. Aksariyat xollarda avtomobillarda salt ishlash rejimida (triband holatda )

ham atrof muxitga zaxarli gazlar chiqadi,tirandlikga yechim topish atrof muhit muhofazasiga ham yechim topish demakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta'sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko'rsatkichlari.// MUBB o'g'li, SAI o'g'li //Механика и технология,// 123-128
2. Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// MU Boliqul o'g'li //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7,// 157-164
3. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions//MU Boliqul o'g'li //Eurasian Research Bulletin 18,// 114-132
4. Jamoat transportlari yo'nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish// MU Boliqul o'g'li, SA Ismoiljon o'g'li//Scientific Impulse 1 (7),// 793-798
5. Dvigatel konstruktsiyasi va ishchi jarayonlarini boshqarishni mukammallashtirish// SA Ismoiljon o'g'li, MU Boliqul o'g'li //Scientific Impulse 1 (4)//, 536-542
6. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions//MU Boliqul o'g'li//Eurasian Research Bulletin //8, 114-132